

**Jizzax viloyati Zafarobod tumanida tashabbusli budjetlashtirishning
amalga oshirish mexanizimi**

Ergashev Davronbek Rustamjon o`g`li

Ergashov Shaxzod Ravshan o`g`li

Botirov Ruslan Abdusalilovich

Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti

Moliya fakulteti 88-guruh talabalari

Annotatsiya: Ushbu maqolada Zafarobod tumanida 2021-2023-yillarda amalga oshirilgan tashabbusli budgetlashtirish natijalari, ajratilgan mablag'lar miqdori, bildirilgan takliflar hamda ovoz berish natijasida g'olib bo'lgan loyihalarini moliyashtirish amaliyoti tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Tashabbusli byudjetlashtirish, taklif bildirish, mablag' ajratish, modernizatsiya, g'olib loyixasini aniqlash, ovoz berish, pudratchini tanlash, shartnoma tuzish, tuman byudjeti, hisobot davri, mablag'.

So'nggi yillarda mamlakatimizda byudjet ma'lumotlarining ochiqligi va shaffofligini yanada oshirish, byudjet mablag'larining shakllanishi va sarflanishi ustidan parlament va jamoatchilik nazoratini kuchaytirish bo'yicha tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Biz Jizzax viloyati Zafarobod tumanida 2021-2023-yillarda tashabbusli budget loyihalari soni va qiymati ko'rib chiqib tahlil qildik. Tahlillar davomida aniq boldiki 2021-yilda tashabbusli budgetlashtirish uchun 2 773 000 ming so'm, bu mablag' 2022-yilda 4 875 042 ming so'mni, 2023-yilda esa 8 821 000 ming so'mni tashkil qilgan

1-jadval

**Jizzax viloyati Zafarobod tumani tashabbusli budgetlashtirish uchun
yo'naltirilgan mablag'lar miqdori (ming so'mda)¹**

¹ <https://openbudget.uz/boards/reports>

Modern education and development

T/r	Ko‘rsatkich nomi	2021-yil	2022-yil	2023-yil
1.	Yil boshiga qoldiq	0	71 705	615 255
2.	Hisobot davrida “Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi”ga o‘tkazilgan mablag‘lar	2 773 000	4 875 042	8 821 000
3.	“Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi”dan moliyalashtirish uchun yo‘naltirilgan	1 880 000.0	5 700 000	8 936 000
3.1.	Bajarilgan ishlar uchun xisobvaraqlardan moliyalashtirilgan mablag‘	1 848 818.4	1 241 890	8 544 757
3.2.	Hisobvaraqlardagi qoldiq	0	0	0
4.	“Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi”da qoldiq mablag‘	893 000	170 927	500 255

Ushbu jadvalda Jizzax viloyati Zafarobod tumani tashabbusli budjetlashtirish uchun yo‘naltirilgan mablag‘lar miqdori yillar kesimida keltirib o‘tilgan. Bundan ko‘rishimiz mumkunki 2021-yilda tashabbusli byudjetlashtirish uchun 2 773 000 so‘mni, 2022-yilda esa 4 875 042 so‘mni bu esa o‘tgan yilga qaraganda 56 % ga oshgan, 2023-yilda esa o‘tgan yilga qaraganda 1.8 baravarga oshib 8 821 000 so‘mni tashkil etgan.

Biz endi Jizzax viloyati Zafarobod tumanida 2021-2023-yillarda tashabbusli budjetlashtirishning takliflar soni hamda sarflangan mablag‘larni ko‘rib chiqib tahlil qildik. Tahlillar natijasida 2021-yilda jami takliflar soni 3 tani, sarflangan mablag‘lar esa 1848,82 mln.so‘mni, bu ko‘rsatkich 2022-yilda takliflar soni 6 tani, ajratilgan mablag‘lar esa 2042,548 mln.so‘mni, 2023-yilda takliflar

Modern education and development

soni 13 tani, sarflangan mablag'lar esa 8544,76 mln.so'mni tashkil etgani tahlilar natijasida ko'rib chiqdik.

2-jadval

Jizzax viloyati Zafarobod tumani tashabbusli budgetlashtirish natijasida amalga oshirilgan tadbirlar²

T/r	Tadbirlar nomi	Moliyalashtirilgan takliflar soni			Sarflangan mablag' (mln so'mda)		
		2021-yi	2022-yi	2023-yi	2021-yi	2022-yi	2023-yi
Jami		3	6	13	1848,82	2042,54	8544,76
1.	Hududiy ichki yo'llar	-	-	-	-		
2.	MFY va SHFY binosi ta'mirlash	-	-	-	-		
3.	Maktab va maktabgacha ta'lim muassasalarini ta'mirlash va jihozlash	2	5	11	872.0	2037,67	6104,29
4.	Sog'liqni saqlash muassasalarini ta'mirlash va jihozlash	-	1	2	-	4,872	2440,46
5.	Boshqa ijtimoiy sozial muassasalarini ta'mirlash va jihozlash	1	-	-	976,81		

² <https://openbudget.uz/boards/reports>

Modern education and development

6.	Ichimlik suvi ta'minot yaxshilash	-	-		-		
7.	Ko'cha chiroqlarini o'rnat tadbirlari	-	-		-		
8.	Hududlarni tartibga keltir (obodonlashtirish ko'kalamzorlashtirish)	-	-		-		
9.	Boshqa tadbirlar	-			-		

Ushbu jadvaldan ko'rishimiz mumkinki, Jizzax viloyati Zafarobod tumani tashabbusli budgetlashtirish natijasida amalga oshirilgan tadbirlar bo'yicha moliyalashtirilgan takliflar soni va sarflangan mablag'lar miqdorini ko'rishimiz mumkin. 2021-yilda umumiy hisobda 3ta taklif kiritilgan. Bundan Maktab va maktabgacha ta'lim muassasalarini ta'mirlash va jihozlash uchun 2ta taklif kiritilgan va 872 000 000 so`m mablag` sarflangan. Boshqa ijtimoiy soha muassasalarini ta'mirlash va jihozlash uchun 1ta taklif va 976 818 000 so`m mablag` sarf qilingan. 2021-yilda 3ta taklif uchun 1 848 818 000 so`m mablag` sarflangan. 2022-yilda 6 ta taklifga 2 042 548 000 so`m mablag' sarflangan. Maktab va maktabgacha ta'lim muassasalarini ta'mirlash va jihozlash bo'yicha 5ta taklif kiritilgan va 2 037 676 000 mablag` sarf qilingan. Sog'liqni saqlash muassasalarini ta'mirlash va jihozlash uchun 1ta taklif uchun 4 872 000 so`m mablag` ishlatilgan. 2023-yilda takliflar soni ortgan va umumiy 13ta taklif kiritilgan, 8 544 757 000 so`m mablag` sarf qilingan. Bundan ko'rinish turibdiku aholida ancha ko'nikma hosil bo'lgan va faollik oshgan. Maktab va maktabgacha ta'lim muassasalarini ta'mirlash va jihozlash uchun 2023-yilda jami 11 ta taklif kiritilgan va 6 104 290 000 so`m mablag' sarflangan. Sog'liqni saqlash muassasalarini ta'mirlash va jihozlash bo'yicha 2ta taklif kiritilib unga 2 440 467 000 so`m mablag` sarflangan.

Modern education and development

Jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan loyihalashtirish uchun mablag'lar tuman budjetiga qonunchilikda belgilangan tartib asosidagi manbalar hisobidan shakllantiriladi. Fuqarolar tashabbusli jamg'armasi mablag'lari mahalliy budgetning tasdiqlangan umumiylarining 5 foizi, mahalliy budgetning yil boshiga erkin qoldiq mablag'lari va mahalliy budgetning orttirib bajarilgan daromadlarining 30 foizi hajmidagi mablag'lari asosida shakillanadi. Quyidagi keltirilgan jadvalda esa shbu turdag'i mablag'larning shakllanishini yillar kesimida ko'rishimiz mumkin.

3-jadval

Jizzax viloyati Zafarobod tumanida Fuqarolar tashabbusli jamg'armasi mablag'larining shakllanish manbalari (mln so'mda)

Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi mablag'larini shakllantirish manbalari	2021-yil	2022-yil	2023-yil
Tuman mahalliy budgeti tasdiqlangan umumiylarining 5 foiz qismi miqdorida ajratilgan mabag'lar	0	3395.042	6000.0
Mahalliy budgetining yil boshiga shakllangan Erkin qoldiq mablag'lari	0	0	0
Tuman mahalliy budgeti qo'shimcha manbalarning 30 fozi miqdorida ajratiladigan mablag'lar	2773.0	1936.0	2821.0
Shu jumladan	Erkin qoldiq mablag'lari	73.0	0
	Daromadlarning hisobot choraklari yakunlari bo'yicha aniqlanadigan prognozdan oshirib bajarilgan qismi	2700.0	573.0
			1486.0

Modern education and development

	Iqtisod qilingan mablag'lar	0	500.0	0
	Respublika byudjetidan ajratilgan mablag'lar (PQ-5250 ga asosan)	0	863.0	2100.0
Jami ajratiladigan mablag'lar	2773.0	5331.042	8821.0	

Yuqorida berilgan jadval so`ngi yillarda Jizzax viloyati Zafarobod tumanida Fuqarolar tashabbusli jamg'armasiga ajratilgan mablag`larning shakllanishi manbalarini yillar kesimida ko'rishimiz mumkin. Tuman mahalliy budgeti tasdiqlangan umumiy xarajatlarning 5 foiz qismi miqdorida ajratilgan mabag'i 4 ta choraklar yakuni bo`yicha jami 2022-yilda 3395.042 mln.so`m ni tashkil etgan. 2023-yilda esa bu ko`rsatkich 6000.0 mln.so`mga yetib o`tgan yilgiga nisbatan 395.042 mln.so`mga oshgan. Tuman mahalliy budgeti qo'shimcha manbalarning 30 fozi miqdorida ajratiladigan mablag'lari esa 4 ta choraklar yakuni bo`yicha jami 2021-yilda 2773.0 mln.so`mni tashkil qilgan bo'lsa 2022-yil esa 1936.0 mln.so`m bo'lgan, bu ko`rsatkich 2023 yilga kelib sezilarli darajada ko'tarilib 2821.0 mln.so`mni tashkil qilib o`tgan yilga qaraganda 885.0 mln.so`mga oshganini tahlil qilish natijasida o'rganib chiqdik. Daromadlarning hisobot choraklari yakunlari bo'yicha aniqlanadigan prognozdan oshirib bajarilgan qismi 2021-yilda 2700.0 mln.so`m bo'lgan bo'lsa, 2022-yilda 573.0 mln.so`mni tashkil etgani holda o`tgan yilgiga nibatan 2127.0 mln.so`mga kamaygan, 2023-yilga kelib esa 1486.0 mln.so`mni tashkil etib o`tgan yilga qaraganda 2.6 baravarga oshganini ko'rib chiqdik. Iqtisod qilingan mablag'lar hisobidan Fuqarolar tashabbusli jamg'armasiga ajratilgan mablag`lar 2021-yil va 2023-yillarda mavjud bo'lмаган lekin 2022-yilda 4 ta choraklar yakuni bo`yicha jami 500.mln. so`mni tashkil etgan.

Yuqoridagi raqamlardan ko`rinib turubdiki Jizzax viloyati Zafarobod tumanida Fuqarolar tashabbusli jamg'armasi tomonidan tashabbusli

Modern education and development

budjetlashtirish natijasida amalga oshirilgan loyihalar uchun yetarlicha mablag`lar ajratilgan va g`olib loyihalar amalga oshirilgan, hatto oxirgi yillarda iqtisod qilingan mablag'lar ham mavjud.

Quyida keltirilgan jadvalda tuman aholisi tomonidan hudud miqyosida eng dolzarb deb topilgan loyihalar, ularning qisqacha mazmuni va loyihaning g`olib bo'lishi uchun qancha ovoz to'plaganligi hamda ushbu g`olib loyihalarni moliyalashtirish uchun qancha mablag' sarflanganligini yillar kesimida hamda loyihalar kesimida ko'rib chiqishimiz mumkin.

4-jadval

**Jizzax viloyati Zafarobod tumani tashabbusli budjetlashtirish
natijasida amalga oshirilgan loyihalar tarkibi³**

T / r	Tadbirning qisqacha mazmuni (sohasi)	Jami to‘plagan ovozlar soni	Shu jumladan			Moliyalashtirish uchun ajratilgan mablag'	miqdori (ming so'mda)
			onlay n ovozlar	oflay n ovozlar	SMS orqali ovozlar		
2021-yilda							
1 .	Zafarobod tumani Uzun QFYda joylashgan 14-maktab futbol maydonchasini ta`mirlash, bolalar sportini rivojlantirish uchun	649	4	-	645	500 000.0	

³ <https://openbudget.uz/boards/reports>

Modern education and development

	qo`shimcha trenajor uskunalarini bilan ta`minlash					
2 .	Zafarobod tumani XTBga qarashli 4-maktabni issiqlik tizimini arzon va sifatli yoqilg`i bilan isitishni tashkil qilish	696	6	85	605	400 000.0
3 .	Zafarobod tumani markazidagi Alisher Navoiy xiyobonini zamon talablariga mos ravishda rekonstruksiya qilish lozim. Sababi ushbu xiyobonda tumanimiz aholisini maroqli xordiq olishi va tumanimizga tashrif buyurgan mehmonlarni xiyobonni yangi qiyofasini ko`rib hayratdan o`zimizda faxr tuyg`usini his qilish hamda kelgusida farzandlarimizni sayr qildirish uchun munosib maskan yaratish zarur.	587	25	42	520	980 000.0
4 .	Jami	1932	35	127	1770	1 880 000
2022-yilda						

Modern education and development

	Zafarobod tumani 17-sonli matematika faniga ixtisoslashtirilgan davlat umumta`lim maktabi o`quvchilarni ta`lim sifatini yanada ko`tarish va dars samaradorligini yanada oshirish maqsadida sinf xonalariga zamonaviy electron interaktiv doskalar o`rnatish	3200	3200		350000.0
2.	Uzun QFY hududidagi 10-sonli mактабning qo`shimcha binosini joriy ta`mirlash va o`quv jihozlari bilan boyitish	3067	3067		700000.0
3.	Ushbu tashabbus orqali o`quvchilarni sportga bo`lgan mehrini yanada oshirish, ularni sog`lom bo`lishini, kelajakda mustaqil Vatanimizga yetuk kadrlar bo`lib yetishiga yordam berish	2364	2364		500000.0
4.	Karidor va sinf xonalarini ta`mirlash, o`quvchilar bilimini oshirish uchun zamonaviy interaktiv doska, robototexnika jamlanmalari	2116	2116		500000.0

Modern education and development

5 .	Oilaviy poliklinikani kapital ta`mirlash	1071	1071			500000.0
6 .	Zafarobod tumani Cho`liguliston QFYda joylashgan 12-sonli umumiy o`rta ta`lim maktabi aktivlar zali, oshxona va kutubxonasi issiqlik tizimiga ulanmagan bo`lib, kuz va qish oylarida juda sovuq holatda bo`ladi. 3ta obektda doimiy chakki o`tadi, faollar zalining o`rindiqlari ham yaroqsiz holga kelib qolgan. Maktab mukammal ta`mirdan chiqarish va faollar zalini 150ta zamonaviy o`rindiqlar bilan ta`minlash kerak.	883	883			500000.0
	Jami	12701	1270 1			3050000
2023-yilda						
1 .	Zafarobod tumani XTBga qarashli 2-sonli umumta`lim maktabini mактаб jиhozlari bilan ta`minlash	2602			2602	500000.0

Modern education and development

2 .	13-umumiy o`rta ta`lim maktabni xojatxonasini capital tamirlash hamda moddiy texnik bazani rivojlantirish maqsadida 16dona interaktiv doska va 3dona personal kompyuter, boshlang`ich sinflarga 2komplekt parta stul kerak	2450		2450	500000.0
3 .	Zafarobod tumani XTBga qarashli 3-sonli umumiy o`rta ta`lim maktabni 450m himoya panjarasi bilan o`rash, qo`shimcha binoni ta`mirlash, maktab xovlisidagi 1200kv.m asfaltlashtirish hamda 20ta kuzatuv kamerasi bilan ta`mirlash	2604		2604	250000.0
4 .	Jizzax viloyati Zafarobod tumani XTBga qarashli 4-sonli umumiy o`rta ta`lim maktabi eski eshik va deraza romlaridan sovuq o`tib ketishi ichki xonalarning issiqligiga ta`sir qiladi, xonalar sovib ketadi shu sabali eshik va deraza romlarni zamonaviysiga almashtirish, o`quvchi va o`qituvchilarning xavfsizligini ta`mirlash maqsadida barcha xonalarga zamonaviy videolameralar o`rnatish, o`qituvchilar va o`quvchilarning	2869		2869	800000.0

Modern education and development

5 .	sog`lom bo`lishi uchun sport maydonchasi tashkil qilish lozim.	2644	2644	700000.0	
6 .	Sport maktabi uchun suniy qoplamali mini stadion qurish va moddiy texnik bazasini mustahkamlash	2658	2658	500000.0	
7 .	Jizzax viloyati Zafarobod tumani Lolazor QFYda joylashgan 9-sonli umumiyl o`rta ta`lim maktabiining stadionini ta`mirlaash uchun 700mln, maktabning ichki qismiga isitish tizimini ishga tushirish uchun 300mln va sinf xonalarga electron doskalar o`rnatish uchun 200mln mablag` kerak	2054	2054	550000.0	
8 .	Zafarobod tuman XTBga qarashli 6-sonli umumiyl o`rta ta`lim maktabi Moddiy texnik bazasini yaxshilash o`quvchilarga bugungi kunda zamonaviy ta`lim berishda muhim 12dona electron doska va	2407	2407	350000.0	

Modern education and development

	12dona noutbuk 1dona triodnom printer xarid qilish					
9 .	Zafarobod tuman tibbiyot birlashmasiga aholiga qulaylik yaratish uchun 20dona monoblok hamda 20dona printer, 2dona noutbuk, 2dona IVL apparati, 2dona Otsos apparati, 2dona Kardiomanitor apparati, 1dona Video gastroskop endoskop apparati, 1dona kosmetologik doska kombayn apparatlari	2103		2103	1 200 000.0	
1 0 .	Zafarobod tuman ixtisoslashtirilgan maktabi moddiy texnik bazasini boyitish hamda ta`lim jarayonida zamonaviy texnologiyalardan keng foydalanish maqsadida 18 dona interaktiv electron doska bilan jihozlash	2348		2348	850 000.0	
1 1 .	Zafarobod tuman tibbiyot birlashmasiga Katta xirurgik nabor, Kichik xirurgik nabor, Kvarts lampa kata, UUT apparati, Avtoklav-sterilizator parovoy VKa-75 P3 poluavtomatik, Mikroskop, Patranajlar sumkasi, xirurgik bikslar katta	2373		2373	1 320 000.0	

Modern education and development

	kichikOperatsion lampa bog`lov xonasi uchun kompyuter EKG				
1 2 . .	7-sonli maktabga o`quv qurollari va johozlari, o`quv partalari xarid qilish 150dona o`quv partasi, 300dona stellar, 10dona (86dyumli LCD panel) interaktiv doska, 10dona noutbuk, kitoblar uchun javonlar va o`qituvchilar xonasi uchun stul, stol jihozlari zarur	2746		2746	526 000.0
1 3 . .	Zafarobod tumani 9-maktabga Kimyo, biologiya, fizika, texnologiyalri xonalarini parta, stol, shkaf bilan jihozlash, sinfxonalarga 20 dona electron doska olish, 1 dona noutbuk, 1 dona rangli printer, maktab tadbirlarini o`tkazish uchun 1dona ovoz kuchaytirgich, quyosh paneli hamda 1dona konditsioner olish zarur	2278		2278	890 000.0
1 4 . .	Jami	32136		3213 6	8 936 000.0

Jadvalda ko'rishimiz mumkunki Jizzax viloyatining Zafarobod tumanidagi tashabbusli byudjet loyihasiga berilgan ovozlarning onlayn, offlayn,

va sms orqali nechta ovoz to'planganini ko'rishimiz mumkin. Shu jumladan 2021-yilda jami ovozlar soni 1932 donani tashkil etgan, 2022 –yilga kelib esa 12 701 donani tashkil etib o'tgan yilga qaraganda ovozlar soni 10 769 donaga ko'paygan va 2023-yilga kelib bu ko`rsatkich qariyb 2.4 baravarga oshib, 32 136 donaga yetgan. Bu loyihalarga jami ajratilgan mablag'larning umumiy miqdori 13.886 mldr so'mni tashkil qilgan. Loyihalar uchun eng ko'p ovoz 3200 tani, eng kami esa 587 tani tashkil qilganini ko'rishimiz mumkin. Bundan ko'rishimiz mumkinki, yillar kesimida aholi faollashishi natijasida to`plangan ovozlar va ajratilayotgan mablag`lar miqdori o`sib brogan.

Xulosa o'rnida shuni aytishimiz mumkinki, Tashabbusli byudjetlashtirishda yildan-yilga fuqarolarning ishtiroklari ortib bormoqda. Buning natijasi o'laroq mamlakatimizning ko'zga ko'rinxagan ijtimoiy sohalari fuqarolarimiz tomonidan muhokama qilinib, takliflar asosida o'z yechimini topmoqda. Bu esa mamlakatimizning byudjet mamlag'larini oqilona foydalanish imkonini bermoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ваҳобов АВ, Маликов ТС. Молия. Дарслик/Тошкент Молия институти. Тошкент:“Шарқ. 2010;804.
2. Malikov, T., and Haydarov NH. Byudjet. "O'quv qo 'llanma." Toshkent:“Iqtisod-moliya 84 (2008).
3. TS Malikov, O Olimjonov. Moliya. - O 'quv qo 'llanma. Toshkent: Iqtisod-moliya, 2018
4. Malikov T, Haydarov N. Budget daromadlari va xarajatlari. O'quv qo 'llanma, Toshkent:“IQTISOD-MOLIYA. 2007.
5. Маликов ТС. Ҳайдаров НҲ “Молия: умумдавлат молияси”. Ўқув қўлланма. 2009.
6. Malikov TS. Byudjet-soliq siyosati. T.:“Iqtisod-moliya. 2019.
7. Malikov, T. S., & Olimjonov, O. O. (2019). Moliya: Darslik.
8. Malikov T, Haydarov N. Budget: tizimi, tuzilmasi, jarayoni. O'quv qo'llanma, Toshkent “IQTISOD-MOLIYA. 2008.

9. Ўроқов У. Бюджет маблағларидан самарали фойдаланишни таъминлаш йўллари. Т. 2017
10. У Ўроқов. Маҳаллий бюджетлар мустақиллигини оширишнинг устувор йўналишлари- Science and Education, 2022
11. У Ўроқов, Д Ускенбаева. Ўзбекистонда ташаббусли бюджетни жорий этишнинг ташкилий-хуқуқий асослари - Science and Education, 2022
12. Ўроқов У, Иргашев И, Ғайбуллаев О. Фуқаролар иштирокидаги маҳаллий бюджет. 2022
13. UY O'roqov, JA Yomg'Irov. Mahalliy byudjetlar barqarorligini ta'minlash masalalari - Central Asian Research Journal for Interdisciplinary ..., 2022
14. Ўроқов УЮ. Маҳаллий бюджетлар шаффоғлиги ва очиқлигини таъминлашнинг устувор йўналишлари. Бизнес-Эксперт журнали. 2020;4.
15. Ўроқов У. Ғайбуллаев О. Ўзбекистон Республикасида бюджет тизими ва жараёни: ўқув кўлланма. Тошкент: Baktria press. 2016.
16. Уроков У. Маҳаллий бюджетлар мустақиллигини оширишга оид назарий карашлар. Республика илмий-амалий конференция. ТМИ 2020.
17. Ўроқов У. Маҳаллий бюджетлар молиявий барқарорлигини белгиловчи кўрсаткичлар. 2020
18. Ўроқов У. Маҳаллий бюджетлар даромадларини шакллантиришнинг самарали йўллари. 2017
19. Ўроқов У. Маҳаллий бюджетлар даромад базасини кенгайтириш масалалари. Республика ўқув юртларапо конференция тўплами. ТМИ-2009 йил (Vol. 18).
20. Ўроқов У. Маҳаллий бюджетлар молиявий мустақилигини оширишнинг замонавий муаммолари. Халқаро илмий-амалий анжуман материаллари тўплами. ТМИ 2022 йил.
21. У Ўроқов. Маҳаллий бюджетлар молиявий мустақиллигини оширишнинг хуқуқий асослари.- Science and Education, 2023
22. G'aybullayev O, O'roqov U. O'zbekiston Respublikasida budjet tizimi va jarayoni. O'quv qo'llanma. T.: Baktriapress. 2016;168.

23. Xaydarov N. Soliqlar va soliqqa tortish masalalari. O'quv qo'llanma. Toshkent: Akademiya. 2007.
24. Хайдаров НХ. Маҳаллий бюджетлар: муаммо ва инновацион ечимлар. Ўзбекистон статистика ахборотномаси” илмий электрон журнали. 2020.
25. Хайдаров Н. Доходы местных бюджетов и пути их укрепления.“Молия” илмий журнали. 2022.
26. Хайдаров Н. Маҳаллий бюджетларнинг даромад манбалари. халқаро илмий-амалий конференция 2022.
27. Хайдаров Н. Маҳаллий бюджетлар даромадини барқарорлаштириш йўллари. халқаро илмий-амалий конференция мақолалар тўплами (Vol. 2022